

Qabul 2022/2023. Hujjatlarni onlayn topshirish jarayoni boshlandi.



Joriy yilning 20-iyun sanasidan Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyiga 2022/2023-o'quv yili uchun umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari tomonidan litsey.edu.uz portali orqali hujjatlarni onlayn topshirish jarayoni boshlandi.

Abituriyentlar ro'yxatdan o'tish jarayonida tizimga shaxsiy ma'lumotlarni kiritish bilan birga quyidagi hujjatlarni elektron shaklda (PDF, JPG) yuklashlari lozim:



Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (tug'ilganlik haqidagi guvohnoma, passport yoki ID karta nusxasi);



joriy yilda 9-sinfni bitirganlik to'g'risidagi shahodatnoma (PDF formatida hajmi 5mb dan oshmagan xolda);



3,5x4,5 sm o'lchamdagi 1 ta rangli fotosurat;



o'qishga imtiyozli kirish huquqini beruvchi hujjatlar — fan olimpiadasi, tanlovlar, musobaqa g'olibi ekanligini tasdiqlovchi diplom, sertifikat, guvohnoma, shuningdek, chet tili va umumta'lim fanlarni bilish darajasi to'g'risidagi milliy yoki xalqaro sertifikat (mavjud bo'lsa).

Hujjatlarni onlayn qabul qilish 10-iyulga qadar (shu kuni ham soat 23:59 ga qadar) davom etadi.

Abituriyentlar ro'yxatdan o'tishda:



o'zlari tanlagan uchtagacha akademik liseyning bittadan mos yo'nalishini tanlashi (bunda ta'lim tili bir xil bo'lishi kerak)



Qaysi chet tilidan kirish test sinovini topshirishini ham belgilaydi.



Shuningdek, abituriyent o'zi tanlagan hududda (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazi yoki Toshkent shahrida) tashkil etiladigan kirish test sinovlarida ishtirok etadi.

Ayni paytda SamDCHTI akademik litseyida o'qishni istagan abituriyentlar va ularning otalariga qulaylik yaratish, ularni qiziqtirgan savollarga tezkor javob berish maqsadida "Call-center" tashkil etilgan.



Murojaat uchun: (66) 233-11-54, (90) 503-17-25, (91) 187-94-41.

Shuningdek, qabul jarayoniga oid tezkor ma'lumotlar SamDCHTI akademik litseyining [@matbuot_info](https://t.me/matbuot_info) telegram kanalida yoritib boriladi.